

Yakubov Faxriddin Jo'raqulovich

Samarqand davlat universiteti Kattaqo'rg'on filiali o'qituvchisi

E-mail: yakubovf57@gmail.com

Tel: +998993525712

UDK: 81.42.132

SIYOSIY DISKURSDA KOGNITIV METAFORA NAZARIYASINING VUJUDGA KELISHI

Annotatsiya. Maqolada kognitiv merafora nazariyasi bo'yicha rus, ingliz va Amerika tilshunos olimlarining tadqiqotlari tahlil qilinadi. Tabiiy fan vakillari metaforaga nazariy instrument sifatida emas, grammatikadan tashqaridagi, to'g'ri fikrlash xos bo'lmagan vosita sifatida qarashgan bo'lishsa-da, hozirgi davrda ilmiy bilimni egallash uchun metaforaning kognitiv potensialini tadqiq qilishga qiziqish o'smoqda.

Kalit so'zlar: kognitiv metafora, referent, konseptual metafora, domen, konseptual referent, deskriptiv tahlil, metaforik proyeksiya, ontologik metafora, kognitiv potensial.

Якубов Фахриддин Джуракулович

преподаватель Каттакурганского филиала

Самаркандского государственного университета

E-mail: yakubovf57@gmail.com

Тел: +998993525712

ВОЗНИКНОВЕНИЕ ТЕОРИИ КОГНИТИВНОЙ МЕТАФОРЫ В ПОЛИТИЧЕСКОМ ДИСКУРСЕ

Аннотация. В статье анализируются исследования российских, английских и американских лингвистов по теории когнитивной метафоры. Хотя представители естествознания рассматривали метафору не как теоретический инструмент, а как средство, выходящее за рамки грамматики, не свойственное правильному мышлению, в настоящее время растет интерес к исследованию познавательного потенциала метафоры для приобретения научного знания.

Ключевые слова: когнитивная метафора, референт, концептуальная метафора, домен, концептуальный референт, дескриптивный анализ, метафорическая проекция, онтологическая метафора, когнитивный потенциал.

Yakubov Fakhriddin Jurakulovich

Teacher of Kattakurgan branch of Samarkand State University

E-mail: yakubovf57@gmail.com

Phone: +998993525712

THE EMERGENCE OF THE THEORY OF COGNITIVE METAPHOR IN POLITICAL DISCOURSE

Annotation. The article analyzes the research of Russian, English and American linguists on the theory of cognitive metaphor. Although representatives of natural science considered metaphor not as a theoretical tool, but as a means beyond grammar, not peculiar to correct thinking, there is currently a growing interest in exploring the cognitive potential of metaphor for the acquisition of scientific knowledge.

Key words: kognitiv metaphor, referent, conceptual metaphor, domen, conceptual referent, descriptiv tahlil, metaphoric projection, ontological metaphor, kognitiv potential.

Kirish.

Chorak asr ilgari ijtimoiy fanlarning ilmiy tadqiqot qiziqishlari sohasida kognitiv strukturalar va bu strukturalarni boshqarish mexanizmlari paydo bo'ldi. Keyinroq bu jarayon kognitiv inqilob (cognitive revolution), kognitiv burilish (cognitive turn) nomini oldi. Bu esa kognitiv fanlar (kognitologiya) paydo bo'lishiga olib keldi. Bu fan o'z oldiga qabul qilish, kategorlashish, tasniflash va dunyoni idrok qilish vazifasini hamda bilimlarni saqlash va reprezentatsiya qilish vazifasini maqsad qilib qo'yadi Kognitiv tilshunoslik – bu yo'nalish bo'lib, uning “diqqat markazida til umumiy kognitiv mexanizm sifatida” va “lisoniy aks etishida” kognitsiya turadi.

Kognitiv tilshunoslikda asosiy o‘rinni atrofdagi voqelikni tasniflash muammosi egallaydi, bunda metafora inson ongining analogli imkoniyatlarining namoyon bo‘lishi sifatida muhim rol o‘ynaydi. Zamonaviy kognitivshunoslikda metaforani (asosiy) mental operatsiya, bilish, tasniflash usuli, konseptlash, baholash va dunyoni tushuntirish usuli sifatida bilishadi. Asosiy so‘zi qavs ichiga olindi, chunki kognitiv metaforaning barcha tadqiqotchilari ham unga *asosiy operatsiya* statusini berishmagan.

Adabiyotlar tahlili.

Metaforani o‘rganishga kognitiv yondashuvning asosiy shartlari uning mental tabiati (ontologik aspekt) va kognitiv salohiyatga (epistemologik aspekt) ega ekanligidir. Metaforik fikrlash fenomeniga M. Osborn [5], J. Janes [1], J. Lakoff [3], M. Jonson [4], E. MakKormak [10] kabi olimlar e‘tibor qaratishgan.

1967-yilda M. Osborn inson hokimiyatni yuqori bilan, barcha xohlanmagan belgilar va narsalarni esa, makon o‘qining quyisiga, pastiga joylashtirishga, metaforik bog‘lashga moyil ekanligi holatini ko‘rsatdi. Bu mohiyatan konseptual metafora nazariyasidagi oriyentatsiya metaforalari sinfiga to‘g‘ri keladi [5].

U ishlab chiqqan arxetiplar nazariyasida metaforalar «tana aqli» zamonaviy nazariyasining kelib chiqishi ko‘rinadi. Konseptual metaforalarning nisbatan analogi siyosiy metaforalarning tizimlilikini tasvirlash usuli sifatidagi metaforik klasterlar deb hisoblash mumkin [1].

Amerikalik olim J. Janesning ishlari o‘quvchilarga ko‘p ham tanish emas. Genezis muammosi va inson ongining evolyutsiyasi muammosi bilan shug‘ullanar ekan, Janes turli tarixiy davrlardagi yozma manbalarda aks etgan inson miyasining funksional assimetriyasi tarixiy dinamikasi haqidagi original gipotezani taklif etadi. 1976-yilda olim “The Origin of Consciousness in the Breakdown of the Bicameral Mind” kitobini nashr ettirdi. Unda alohida bir bo‘lim metaforalarga bag‘ishlangan bo‘lib, unda insonning kognitiv tizimi shakllanishida metaforalarning roli aks etgan [1]. J. Janes ongning evolyutsiyasini metaforlashish qobiliyatiga bog‘laydi va metafora bizning dunyoni tushunish uslubimizning kengayishi, inson tafakkurining ekspansiyasi deb, hisoblaydi. J. Janes yozgan

ediki, “mavhum konseptlar konkret metaforalar yordamida shakllanadi” [1]. Lekin ko‘pchilik kishilar ko‘p so‘zlarning metaforik ekanligini anglamaydi – “mavhum tushunchalarni ifodalovchi so‘zlar xuddi qadimgi tanga, monetalar kabi ko‘p ishlatilishdan chiqib ketgan” [1]. J. Janesga ko‘ra, tushunish – bu yaxshi metaforani topish degani, yaxshi tanish bo‘lgan va sezgi tuyg‘ularimiz bilan bog‘liq kam tushunarli yoki notanish narsalarni fikrlash uchun obrazni tanlash degani.

Tadqiqot metodologiyasi.

Siyosiy diskursda kognitiv metafora nazariyasining vujudga kelishiga bag‘ishlangan ushbu maqolada ilmiy tadqiqotning analiz, sintez, umumlashtirish, taqqoslash kabi uslublaridan foydalanilgan.

Tahlillar va natijalar.

Ko‘rib chiqilgan barcha tadqiqotlar metaforaga kognitiv yondashuvni vujudga kelishiga yordam berdi, lekin aynan J. Lakoff va M. Jonsonning “Metaphors we live by” [1980] kitobida metaforani kognitiv mexanizm sifatida tasvirlashga tizimlilik kiritildi va amaliy tadqiqotlarda nazariyani qo‘llashda katta evristik potensialni namoyon qildi. Mualliflar ta’kidlashicha, metafora faqat til sohasi bilan chegaralanib qolmaydi, insonning tafakkur qilish jarayonlari ham yuqori darajada metaforikdir. Metafora tafakkur qilish fenomeni sifatida faqat tildagina emas, idrok etishda, harakat qilishda ham ko‘rinadi. “Biz o‘ylaydigan va harakat qiladigan kundalik tushunchalik tizimimiz aslida metaforikdir” [4]. Bunday yondashuv metaforani til tizimlari doirasidan tashqariga chiqarishga va uni til, tafakkur, madaniyatning o‘zaro aloqasi fenomeni sifatida qarashga imkon berdi. Ancha keyingi “The Contemporary Theory of Metaphor” ishida J. Lakoff metaforik ifodalar va konseptual metaforalarni qat’iy chegaraladi va “metafora lokusi – fikrlarda, tilda emas” deb ta’kidladi [4].

Konseptual metafora nazariyasiga ko‘ra, metaforlashish asosida ikki konseptual domen: manba soha (source domain) va maqsad soha (target domain) bilim strukturalari (freymlar, ssenariylar) o‘rtasidagi o‘zaro ta’sir qilish jarayoni yotadi. Bir yo‘nalishli metaforik proyeksiya (metaphorical mapping) natijasida

manba sohasidan maqsad sohasiga insonning tevarak-atrofdagi olam bilan o‘zaro ta‘sirining tajribasi oqibatida manba soha elementlari kamroq tushunarli bo‘lgan konseptual maqsad sohasini strukturlaydi va metaforaning kognitiv potentsiali mohiyatini tashkil etadi.

Konseptual domenlarni tashkil etuvchi bilimlarning asosiy manbai insonning tashqi dunyo bilan bevosita o‘zaro ta‘siri tajribasi bo‘lib, diaxronik jihatdan birinchi darajali narsa voqelikni oddiy kognitiv tuzilmalar – “obrazlar sxemasi” ko‘rinishida tasniflashni tashkil etuvchi jismoniy tajribadir.

Metaforik proyeksiya faqat ikki bilim strukturalarining alohida elementlari o‘rtasida emas, balki konseptual domenlarning butun strukturalari o‘rtasida amalga oshadi. Metaforik proyeksiyada maqsad sohada manba sohaning qisman saqlanishi haqidagi faraz invariantlik gipotezasi (Invariance Hypothesis) nomini olgan [2]. Ana shu xususiyat tufayli metaforik natijalar (entailments) amalga oshishi mumkin bo‘ladi, bular metaforada eksplisit ifodalanmagan, lekin ma‘nosi freym bilimlari asosida chiqariladi. Shunday qilib, manba sohaning kognitiv topologiyasi bir muncha darajada maqsad sohaning fikrlash usulini aniqlaydi va qaror qabul qilish, harakat qilish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Bilim strukturalari (konseptual metaforalar) o‘rtasidagi konvensional metaforik muvofiqlik ma‘lum bir madaniyat va til bilan mos keladi. Masalan, **argument is war (bahs – bu urush)** metaforasi ingliz tilida so‘zlashuvchilarning asosiy madaniy qadriyatlari bilan moslashgan. Metafora faqat bahsni urush tushunchalari bilan tasvirlash vositasi emas, bahsni tushunishning turg‘un birikmasi hamdir: bahsda yutish va yutqazish ham mumkin, qarshi taraf raqib sifatida qabul qilinadi, bahslashuvchilar strategiya ishlab chiqadilar, pozitsiyalarni egallaydilar, raqib argumentlariga “o‘t ochadilar” (shoot down) va hokazo. Shu bilan birga, yana “shunday madaniyatni tasavvur qilish mumkinki, bunda bahs raqsdir, ishtirokchilar raqqoslar kabi bo‘lishadi, maqsad dushman ustidan g‘alaba qozonish emas, balki garmonik va estetik jozibador raqs tushishdir” [2].

Konseptual metaforalar “tilni ona tili sifatida so‘zlashuvchilar madaniy paradigmasining ajralmas qismidir» [3]. Ular kishilar ongida shunchalik ildiz otib

ketganki, shunchalik odatiy bo'lib ketganki, ba'zan metafora ekanligi sezilmay ham qoladi.

Amerikalik tadqiqotchilarning tipologiyasida konseptual metaforalar uchta asosiy guruhga bo'linadi: strukturaviy, ontologik va oriyentatsiya metaforalari. Struktur metaforalarda maqsad sohaning kognitiv topologiyasi (argument is war) metaforasi maqsad sohasini tushunish uchun modeldir. Ontologik metaforalar mavhum ma'nolarni makondagi chegaralarini aniqlash orqali toifalarga ajratadi (mind is machine) yoki personifikatsiya yordamida (inflation is eating up our profits), oriyentatsiya metaforalar oppozitsiyani aks ettiradi, ularda bizning dunyo makon oriyentatsiyasidagi tajribamiz aks etgan bo'ladi (good is up, bad is down).

Konseptual metafora bo'yicha zamonaviy tadqiqotlarning xilma-xilligi J. Lakoff va M. Jonsonning nazariyasiga bo'lgan qiziqishning tobora o'sib borayotganidan darak beradi. Konseptual metaforalar insoniyat tajribasining butun sohasini qoplab olganligi va katta kognitiv potensialga ega ekanligi bugungi kunda konseptual metafora bo'yicha ko'plab tadqiqotlar bilan mustahkamlanmoqda.

Bu nazariya evristikasini qo'llash sohasi vaqt o'tgan sari ko'proq tillar materiallarini ilmiy izlanishlarga qo'shish hisobiga muttasil kengayib bormoqda. Bunga arab va xitoy tillaridagi metaforalarga bag'ishlangan nashrlarni misol qilib keltirish mumkin. Bu nazariya rivojlanishining yana bir yo'nalishi – bu noverbal semiotik tizimlar metaforik potensialiga murojaat qilishdir.

Kognitiv metafora odatda an'anaviy tushunchaga zid bo'lsa-da, tadqiqotchilar metaforaning kognitiv salohiyatiga birinchi bo'lib Aristotel ishora qilganini tobora ko'proq ta'kidlamodalar. Keyingi avlod faylasuflari Aristotel aytgan metaforaning “narsalarning mohiyatiga kirish” qobiliyatiga yetarlicha e'tibor qaratmadilar [4].

Tabiiy fan vakillari esa, metaforaga qonuniy nazariy instrument sifatida emas, grammatikadan tashqaridagi, to'g'ri fikrlash xos bo'lmagan vosita sifatida e'tiborsiz qaradilar [10]. Hozirgi davrda ilmiy bilimni egallash uchun metaforaning kognitiv potensialini tadqiq qilish keng tarqalmoqda. Konseptual metaforaning falsafaning o'ziga nisbatan hamda bioximiya, tarix, matematika, psixologiya,

genetika, iqtisodiyot va boshqa ko'p ilmiy yo'nalishlardagi ilmiy g'oyalarning rivojlanishiga ta'siri tadqiq qilingan.

Ayniqsa siyosiy kommunikatsiya sohasidagi konseptual metafora tadqiqotlari keng tarqaldi. Siyosiy diskursga kognitiv evristikani qo'llash istiqbollari J. Lakoff va M. Jonson tomonidan belgilab berilgan [4]. Konseptual metafora umumiy tasnifi bilan birga Amerikalik tadqiqotchilar J. Karterni harbiy metaforasi natijalarini ko'rib chiqdilar va emotsional bahodan mahrum bo'lib tuyulgan **mehnat – bu resurs** metaforasi ham bozor, ham totalitar iqtisodiyotga ega davlatlar iqtisodiy siyosatning g'ayriinsoniy mohiyatini yashirishga imkon berishini ko'rsatdilar.

Xulosa.

Shunday qilib, subyekt reallikka emas, balki reallikning o'z kognitiv reprezentatsiyasiga aks ta'sir etishga moyil degan fikr insonning xatti-harakati to'g'ridan-to'g'ri obyektiv reallik bilan emas, inson reprezentatsiyalari tizimi bilan aniqlanadi degan xulosaga olib keladi. Bundan kelib chiqadiki, metaforik fikrlash asosida biz chiqaradigan xulosalar harakat uchun asosni shakllantiradi. Bu ko'p jihatdan hozirgi davr tadqiqotchilarining siyosiy kommunikatsiya sohasidagi konseptual metaforaga qiziqishlari yanada o'sganligini izohlaydi.

Adabiyotlar

1. Jaynes J. The origin of consciousness in the breakdown of the bicameral mind. Boston: Houghton Mifflin, 1976. – 123 p.
2. Lakoff G. The Contemporary Theory of Metaphor // Metaphor and Thought. / ed. A. Ortony. – Cambridge: Cambridge University Press, 1993. – 428 p.
3. Lakoff G. The Invariance Hypothesis: Is Abstract Reason Based on Image Schemata? // Cognitive Linguistics. Vol. 1. 1990. – 98 p.
4. Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live by. Chicago, 1980. – 256 p.
5. Osborn M. Archetypal Metaphor in Rhetoric: The Light-Dark Family // Quarterly Journal of Speech. Vol. 53. 1967. – 215 p.
6. Болдырев Н. Н. Когнитивная семантика: Курс лекций по английской филологии. Тамбов, 2001. – 176 с.

7. Демьянков В. З. Когнитивная лингвистика как разновидность интерпретирующего подхода // Вопросы языкознания. № 4. 1994. – 86 с.
8. Кубрякова Е. С. Начальные этапы становления когнитивизма: лингвистика – психология – когнитивная наука // Вопросы языкознания. № 4. 1994. – 202 с.
9. Лакофф Дж., Джонсон М. Метафоры, которыми мы живем: Пер. с англ. / Под. ред. и с предисл. А. Н. Баранова. М., 2004. – 256 с.
10. МакКормак Э. Когнитивная теория метафоры // Теория метафоры. – Москва: 1990. – 214 с.
11. Рудакова А. В. Когнитология и когнитивная лингвистика / Под. ред. И. А. Стернина. – Воронеж. 2002. – 312 с.